

**ISAJON SULTONNING “BILGA XOQON” ROMANIDA XALQ
OG‘ZAKI IJODINING OBRAZLAR TIZIMIDAGI O‘RNI**

**Navoiy innovatsiyalar universiteti v.b. dotsenti,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Tosheva Nilufar Shirinboyevna**

Annotatsiya. Mazkur maqolada Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romanida xalq og‘zaki ijodi motivlari, mifologik qatlam, timsollar va obrazlar tizimining shakllanishiga ta’sir etuvchi folklor unsurlari tahlil qilinadi. Asarda qo‘llangan afsona, doston, rivoyat, maqol va paremiologik birliklar badiiy strukturaning mazmuniy-funksional asoslari sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Isajon Sulton, “Bilga Xoqon”, xalq og‘zaki ijodi, mifologiya, obrazlar tizimi, timsol, tarixiy roman, turkiy epika.

**THE ROLE OF FOLK ORAL CREATIVITY IN THE SYSTEM OF
CHARACTERS IN ISAJON SULTON’S NOVEL “BILGA KHOKHON”**

Abstract. This article analyzes the motifs of folk oral creativity, the mythological layer, symbols, and their influence on the formation of the system of characters in Isajon Sulton’s novel “Bilga Khokhon.” Folklore elements such as legends, epics, narratives, proverbs, and paremiological units are considered as the semantic-functional basis of the artistic structure. Comparative-analytical, compositional, and structural approaches are applied to reveal the folkloric interpretations in the novel’s poetics.

Keywords: Isajon Sulton, “Bilga Khokhon”, folk oral creativity, mythology, system of characters, symbols, historical novel, Turkic epic.

**РОЛЬ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В СИСТЕМЕ
ОБРАЗОВ В РОМАНЕ ИСАДЖОНА СУЛТОНА «БИЛГА ХОКХОН»**

Аннотация. В статье анализируются мотивы народного устного творчества, мифологический слой, символы и их влияние на формирование системы образов в романе Исаджона Султона «Билга Хокхон». Фольклорные элементы, такие как легенды, эпосы, повествования, пословицы и паремиологические единицы рассматриваются как смысло-функциональная основа художественной структуры. Применяются сравнительно-аналитический, композиционный и



FRANCE

структурный подходы для раскрытия фольклорных интерпретаций в поэтике романа.

Ключевые слова: Исаджон Султон, «Билга Хокхон», народное устное творчество, мифология, система образов, символы, исторический роман, тюркский эпос.

XXI asr o‘zbek adabiyotida tarixiy roman janri yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu jarayonda milliy tarixni badiiy qayta kashf etish, turkiy sivilizatsiyaning ildizlari, qadimgi davlatlilik an‘analari, shaxs va jamiyat munosabatlarini badiiy nuqtayi nazardan yoritish muhim tendensiyalardan biridir. Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romani ana shu jarayonning yorqin namunasidir. Asarda VIII asr tarixiy shaxsi Bilga Xoqonning siyosiy faoliyati va ruhiy olami tasvirlanar ekan, yozuvchi turkiy og‘zaki ijod, qadimgi turk eposi poetikasidan keng foydalangan.

Xalq og‘zaki ijodi xalq tarixiy xotirasining eng qadimiy va eng ishonchli qatlamlaridan biri hisoblanadi. Folklor obrazlari, timsollari, paradigmalari zamonaviy badiiy matnda yangi ma‘noda talqin qilinishi orqali xalqning genetik xotirasi qayta jonlanadi. “Bilga Xoqon” romanida ham folklor unsurlari faqat dekorativ bo‘yoq sifatida emas, balki obrazlar tizimining asosiy g‘oyaviy strukturasini belgilovchi estetik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romanida xalq og‘zaki ijodi ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. Struktur-funksional qatlam - voqealarning qurilishi, konfliktlar, syujetning ichki harakati aynan epik an‘analar bilan uyg‘unlashadi.
2. Semantik-timsolli qatlam -obrazlar, shaxslar xarakteri, ularning psixologik holatlari asosan folklor timsollari orqali talqin etiladi.

Turkiy xalqlarning qadimiy epik an‘anasida qahramonning voyaga yetishi, o‘z xalqini himoya qilishi, taqdiri bilan kurashishi markaziy o‘rin tutadi. Roman syujetida Bilga Xoqonning yoshligi, ichki izlanishlari, davlat rahbari sifatida qaror topishi ko‘p jihatdan epik qahramonning yo‘li modeliga mos keladi. Bu esa yozuvchining voqealarni xalq og‘zaki ijodidagi epik kompozitsiya bilan bog‘lashga urinayotganini ko‘rsatadi.

Bilga Xoqon romanda faqat tarixiy shaxs emas u turkiy xalqlarning “donishmand hukmdor”, “xalq otasi”, “qudratli boshchi” haqidagi folklor arxetipining badiiy modifikatsiyasi sifatida talqin qilinadi.

Bilga Xoqonning tabiat bilan doimiy muloqoti, osmonga yuzlanib qaror chiqarishi, ajdodlar ruhi bilan suhbatlari epik personajlarga xos xususiyatlardir.



FRANCE

“Tangri toqdir!Men -Tangri yorlaqagan Bilga xoqon, bu yerga o‘tirdim. Og‘a-inilarim, o‘g‘lonlarim! Birlashgan ulusim, budunim!O‘ndagi shad, apa beklar,so‘ldagi tarqat buyruq beklar, o‘g‘uz beklari, buduni! Qirg‘iz beklari, buduni! Ilgari to kun chiqishigacha, o‘ngda to kun o‘rtasigacha, ortda kun botishgacha, so‘ldan tun o‘rtasigacha, uning ichidagi budun otam Eltarish xoqonga bo‘ysunardi.Otam Eltarish xoqon budunni bor qilib, dong‘ini ko‘tarib o‘zi uchdi. Otamning inisi Qapag‘an xoqonda ko‘kka uchdi”¹.

Romanda Kultigin turkiy epik an‘anasidagi “bahodir qahramon” timsolining davomchisi sifatida tasvirlanadi. Uning jangovarligi, sadoqati, o‘z xalqiga xizmat qilishdagi qat‘iyligi ijodkor tomonidan badiiy ifodalab beriladi. Kultiginning jasurligi, mardligi, xalqi uchun jonini ham fido qilishi xalq og‘zaki ijodidagi ertak,doston qahramonlariga xosdir.

“Kul Tigin Biyirkuning oq ayg‘iriga minib yovga tashlandi.Bir erga o‘qini urdi, ikki erni sanchdi.Ul olishuvda Biyirquning oq ayg‘irining beli sindi. Ul yilda turgeshlarga qarshi, Oltin yish tog‘ini osha, Irtishni kecha yurdik. Turgesh budunni unda bosdik.Turgesh xoqon qo‘shini Bo‘lichida o‘tdek, to‘fondek keldi. Urushdik”².

Asarda ayol obrazlarining tasviri turkiy mifologiyadagi “ona-yer”, “ona-quduq”, “ona hayot” konsepsiyalari bilan chambarchas bog‘langan. Bilga Xoqon, Kul Tigin onasining obrazi bir vaqtning o‘zida: tarbiyachi, nasl davomchisi, ruhiy madadkor, vatan timsoli vazifalarini bajaradi. Bu tasvir o‘zbek xalq ertaklari va qadimgi turkiy mifologiyada uchraydigan onalik kultining badiiy ko‘rinishidir.

Turkiy mifologiyaning markaziy timsoli Tangri, ya‘ni osmon xudosi. Roman davomida Bilga Xoqonning qarorlariga “osmon irodasi”ning ta‘siri, uning yuqoriga qarab fikr jamlashi, ichki ruhiy suhbatlari itiqodiy dunyoqarashini aks ettiradi.

Voqealar rivojida quyosh kuch-qudrat va adolat timsoli sifatida; oy esa sir va ruhiy poklanish ramzi sifatida qo‘llanadi. Dushman yeriga borganda roman qahramonlari oy va quyoshni jonlantiradi. Bunday tasvirlar asar qahramonlarining dunyoqarashi, imon-e‘tiqodini ochib berishga yordam bergan.

Qush obrazi asarda elchi va ruhiy qo‘llovchi timsol sifatida gavdalanadi. Xalq tasavvurida qush ajdodlar ruhi, osmonga inson ruhini olib ketuvchi mavjudot, tushda ko‘rilgan qush esa omad kabi ma‘nolarga ega. Bu an‘ana xalq og‘zaki ijodidagi qushlar haqidagi afsona va ertaklarga borib taqaladi.

¹ Isajon Sulton. Bilga Xoqon. – Toshkent :Faktor books,2022. – B -93.

²Isajon Sulton. Bilga Xoqon. – Toshkent :Faktor books,2022. – B -127.



“Eng keng qo‘llaniladigan qush ko‘rinishidagi mifologik obrazlardan biri Humodir. Humo ezgulik ramzi bo‘lgan afsonaviy qush nomi bo‘lib, xalqning ishonch-e‘tiqodiga ko‘ra, agar u kimning boshiga qo‘nsa yoki soyasi tushsa, o‘sha kishi eng baxtli bo‘ladi”³

Insonlar tafakkurida qushlar haqida shunday tasavvurlar mavjud bo‘lgan. Romanda qush bilan birga tabiat vositalari ham qo‘llangan va ular ham asar voqeligida ma‘lum bir mazmun kasb etgan.

“Ko‘k tangri yerni kishi o‘g‘li uchun tuzagan ekan. Kishi o‘g‘li Tangrisini unutmabdi. Kun yodida tutibdi, tun yodida tutibdi. “Tangrim senga topinay “ debdi,. Unga atab bir molini so‘yishni istabdi, biroq bu yalangda so‘ysam, tuzuk emas debdi. Ko‘k tangri yuksakdir, muni yuksakka oborib so‘yay”⁴.

Asarda qadimgi xalqimizning urf-odatiga aylangan Tangri uchun qurbonlik qilish an‘anasi mavjud bo‘lib, ularning nazdida so‘yilgan jonlikning ruhi Tangri uchun atalgan. Bu qurbonlik evaziga qabilalar Tangridan tinchlik, omad, boylik so‘rashgan. Bunday an‘na hozirgi kunda ham xalqimiz orasida mavjud.

Romanda tarixiylik va folklor bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to‘ldiruvchi estetik ikkilik sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi tarixiy faktlarga sodiq qolgan holda, uni xalq xotirasi bilan boyitadi. Natijada:

- tarixiy shaxslar quruq faktlar emas, balki milliy ongning yorqin timsollari sifatida talqin qilinadi;
- tarixiy voqealar epik talqin orqali badiiy mantiqqa ega bo‘ladi;
- roman milliy eposning zamonaviy bir modifikatsiyasi sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romani xalq og‘zaki ijodi bilan to‘yingan badiiy matn sifatida o‘zbek tarixiy romanchiligida alohida o‘rin tutadi. Asarda folklor:

- 1) obrazlar tizimining shakllanishiga,
- 2) qahramonlar xarakteri va psixologiyasining ochilishiga,
- 3) syujet maromining qurilishiga,
- 4) badiiy-estetik g‘oya va timsollarning boyishiga bevosita xizmat qiladi.

Romandagi folklor unsurlari estetik bezak emas, balki badiiy strukturaning markaziy unsuri, milliy tarixni ruhiy-estetik qayta anglash vositasidir. Shuning uchun

³ D.O‘rayeva., M.Otajonova., S.Nurullayeva. Mif va badiiy ijod. – Buxoro :Fan ziyosi nashriyoti, 2024. – B -164.

⁴ Isajon Sulton. Bilga Xoqon. – Toshkent :Faktor books, 2022. – B -73.



FRANCE

ham “Bilga Xoqon” romani milliy epik tafakkurning zamonaviy adabiyotdagi yorqin davomchisi sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent : Sharq NMAK, 2001.
2. Isajon Sulton. Bilga Xoqon. – Toshkent : Faktor books, 2022.
3. D. O'rayeva., M. Otajonova., S. Nurullayeva. Mif va badiiy ijod. – Buxoro : Fan ziyosi nashriyoti, 2024.
4. Yoqubov I. Mustaqillik davri romanlari poetikasi. Filol. fan. d-ri (DSc) diss. avtoref. - Toshkent : 2018.